



ALISHER NAVOIY MAQSUD SHAYXZODA NIGOHIDA

Amirxonov Ibrohim Abdurahmon o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti

"Temir yo'l transport muhandisligi"

fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy siymosi Maqsud Shayxzoda nigohida yoritiladi. Unda Shayxzodaning Navoiy shaxsiyati va ijodiga bo'lgan munosabati, uning navoiyshunoslikka qo'shgan hissasi, tarixiy sharoit hamda shaxsiy taqdir omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, ikki buyuk siymo o'rtasidagi madaniy bog'liqlik, ijodiy mushtaraklik va adabiy meros masalalari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Maqsud Shayxzoda, navoiyshunoslik, ruhiy kechinmalar, tarjimonlik, qatag'on, adabiy talqin

Аннотация: В данной статье освещается образ Алишера Навои сквозь призму взглядов Максуда Шайхзаде. Анализируется отношение Шайхзаде к личности и творчеству Навои, его вклад в навоиведение, а также влияние исторических условий и факторов личной судьбы. Кроме того, раскрываются вопросы культурной связи, творческой общности и литературного наследия между двумя великими личностями.

Ключевые слова: Алишер Навои, Максуд Шайхзаде, навоиведение, душевные переживания, переводческая деятельность, репрессия, литературная интерпретация.

Abstract: This article highlights the persona of Alisher Navoi through the lens of Maqsud Shayxzoda. It analyzes Shayxzoda's attitude toward Navoi's personality and work, his contribution to Navoi studies (Navoiyology), and the influence of historical conditions and personal destiny. Furthermore, the article explores the cultural connection, creative commonality, and literary heritage issues between these two great figures.

Keywords: Alisher Navoi, Maqsud Shayxzoda, Navoi studies, emotional experiences, translation, repression, literary interpretation.

Bugungi bir rivojlangan kunda adiblarni nomini ulug'lash ularga bo'lgan hurmat ular bosib o'tkan yo'llar va bizga qoldirgan boy meroslarini o'rganish hamda ularga kelajak avlot sifatida ularni boy berosini o'rganish ota boolarimiz bizga qoldirgan adabiy merosini boyitishga harakat qilib qolamiz. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-sonli qarori ushbu yo'nalishda muhim huquqiy va ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur qaror asosida oliy ta'lim muassasalari, jumladan, biz tahsil olayotgan Toshkent davlat transport universiteti talabalari o'rtasida atoqli adiblar ijodini targ'ib qilish tizimli ravishda yo'lga

qo'yildi. Maqsud Shayxzodamerosini o'rganish bizga qoldirgan buyuk ijod mahsulotlari va o'zbek xalqi uchun qoldirgan boy meroslari ham albatda aytib o'tish ham biz talabalar uchun fahir tuyg'usidir deb aytani bizning ustozlarimiz. Biz muhandislar uchun badiy adabiyot ham o'rni bekiyos deb aytish o'rinli bo'ladi albatda.

Alisher Navoiy o'z davrining nafaqat yirik shoiri, balki yetuk davlat arbobi, ilm-fan homiysi va mutafakkiri sifatida tarixda qolgan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak — avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak — mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak — shoirlarning sultonidir". Navoiyning besh asrdan oshiq vaqt davomida adabiyot cho'qqisida turishi uning asarlaridagi umuminsoniy g'oyalar, adolat va ilmga bo'lgan sadoqati bilan bog'liqdir. Aynan mana shu jihatlarni XX asrning zabardast ijodkori Maqsud Shayxzoda o'z tadqiqotlarida mahorat bilan ochib bergan. Shayxzoda 1930-yillarning oxiridan boshlab Navoiy ijodini tizimli o'rganishga kirishdi va 1941-yilda Navoiy tavalludining 500 yilligi nishonlanishi arafasida "Navoiy — zamonamizdoshimiz" nomli o'lmas maqolasini yozdi. U Navoiyni shunchaki o'tmishning buyuk siymosi sifatida emas, balki biz bilan hamnafas yashayotgan, bugungi kun yoshlariga yo'l ko'rsatuvchi ma'naviy mayoq sifatida talqin etdi.

Shayxzodaning navoiyshunoslikdagi faoliyati uning chuqur bilim va keng dunyoqarash sohibi ekanligidan dalolat beradi. U Navoiyning "Xamsa" dostonlarini, ayniqsa, "Farhod va Shirin" dostonini tahlil qilar ekan, undagi bunyodkorlik g'oyalariga alohida urg'u beradi. Farhod timsolidagi ulkan muhandislik salohiyati, tog'larni talqon qiluvchi sadoqat bugungi kun temir yo'l transporti muhandislari uchun ham o'ziga xos ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Shayxzoda Navoiy g'azaliyotidagi ruhiy kechinmalarni o'zining nozik shoirona qalbi bilan his qildi. Ma'lumki, ustoz Lutfiy Navoiyning birgina bayti uchun butun ijodini almashishga tayyor bo'lgan bo'lsa, Shayxzoda ham Navoiyning har bir satri mohiyatini xalqqa yetkazish uchun o'z umrini baxshida etdi. Uning: "Umlar bo'ladiki, tirigida o'likdir, o'limlar bo'ladiki, o'lgan odam tirikdir" kabi misralari insonning vafotidan so'ng ham albatda qalbimizda o'chmas iz qoldiradi deymiz.

Maqsud Shayxzodaning hayot yo'li va ijodi ham Navoiy kabi zahmat va matonat bilan yo'g'rilgan. 1952-yilda shoir nohaq ayblovlar bilan 25 yillik qamoq jazosiga mahkum etildi. Stalincha qatag'on tizimi shoirning jismoniy erkinligini cheklagan bo'lsa-da, uning ijodiy ruhini sindira olmadi. 1954-yilda ozodlikka chiqqan Shayxzoda yanada katta shijoat bilan Navoiy merosini o'rganishda davom etdi. Uning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi aynan Navoiy orzu qilgan ma'rifatli jamiyat va ilm-fanga sadoqat g'oyalarining badiiy in'ikosidir. Shayxzoda Ozarbayjonda tug'ilib, O'zbekistonda ijod qilib shu yurtga qo'shgan ulug' boy merosini ham yana bir bor yodga olmasdan ilojini topgan bo'lsa-da, o'zbek adabiyoti uchun chekkan zahmatlari uni milliy qahramon darajasiga ko'tardi. Navoiy o'z davrida Hirotni tark etib, Mashhad va boshqa o'lkalarda sargardonlik chekkani kabi, Shayxzodaning taqdiri ham vatanidan

yiroqda, ammo xalqiga sadoqat bilan o‘tdi. Bu mushtaraklik ikki buyuk qalbning millat dardida birlashganidan dalolat beradi.

Shayxzoda nafaqat Navoiy, balki jahon adabiyoti namoyandalari — Shekspir, Pushkin, Lermontov asarlarini ham o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. Bu orqali u o‘zbek kitobxonining dunyoqarashini xalqaro miqyosga kengaytirdi. Bugungi kunda universitetimizda "Maqsud Shayxzoda haftaligi" doirasida o‘tkazilayotgan tadbirlar, taniqli ijodkorlar, xususan, Bobur Bobomurod kabi ustozlar bilan uchrashuvlar biz talabalarda aynan mana shu matonat va ilmga bo‘lgan muhabbatni shakllantirmoqda. Shayxzoda nigohidagi Navoiy — bu mangu yashaydigan ideal shaxs timsolidir. Biz ushbu ikki buyuk zotning merosini o‘rganar ekanmiz, nafaqat kasbiy malaka, balki yuksak ma’naviyat darsini ham olamiz. 502-sonli qaror ijrosini ta’minlash, Adiblar xiyobonini ziyorat qilish va ularning asarlarini mutolaa qilish bizning nafaqat talabalik vazifamiz, balki ma’naviy burchimiz hamdir. Biz ajdodlar xotirasi va merosi yashar ekan, albatda ularga izdosh bo‘lishga albatda harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 502-sonli qarori.
2. Karimov N. Maqsud Shayxzoda (Ma’rifiy-biografik roman). – Toshkent: Sharq, 2010. – 320 b.
3. Shayxzoda M. Asarlar to‘plami. 6 jildlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1969-1974.
4. Yo‘ldoshev Q. Maqsud Shayxzoda ijodida Navoiy an’analari. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2018. – №3.
5. Maqsud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1983.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1987-2002.